

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK-TIL VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

IJTIMOY SIYOSAT

fanining

O'QUV DASTURI

Bitim sobasi:
Ta'lim sohasi:
Ta'lim yo'nalishi:

300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
60311000 – Sotsiologiya

Toshkent – 2025

6.	Asosiy adabiyotlar 1. "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots. A.A. Abdullailov, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dots. E.X. Zaitov – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2021. 432 bet; 2. Xusanova. X.T. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zMU nashri, 2022. – 88 b. Qo'shimcha adabiyotlar 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 80 b. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 3. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. 4. Кричевский Н.А. Социальное страхование. Учебник. –М.: Дашков и К, 2011. – 381 с. 5. Социальная политика: учебник для бакалавров / под ред. С. 69 Е. И. Холостовой, Г. И. Климантовой. – М.: Издательство Юрайт, 2013. – Серия: Бакалавр. Базовый курс. 6. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot". 2010. Axborot manbaalari 1. http://www.ziyounet.uz 2. http://www.nuu.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.stat.uz
7.	Fan dasturi Universitet Kengashining 2025-yil ____-avgustdagi I-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: O.U. Abduazimov – Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi dotsent v.b. Sots.f.d. (DSc)
9.	Taqrirlashchilar: E.Zoitov . (imzo) O'zMU "Sotsiologiya" kafedrasi mudiri dotsent s.f. (PhD). X.F. Akramov (imzo) Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU "Psixologiya va sotsiologiya" kafedrasi dotsenti v.b., s.f. (PhD)

Buyuk Britaniyaning, University of Reading nomli OTM (QS 300 talikka 172 o'rinda) ta'lim dasturlari tahlil qilindi. "Ijtimoiy siyosat" fanining o'quv dasturlaridagi o'quv fani ma'ruza mavzulariga «Ijtimoiy identiklik» ma'ruza mavzusi yangilandi va fan doirasida mavzular TOP-300 talikka kirgan oliygohlar dasturlari asosida takomillashtirildi.

Fan/modul kodi IJS1308	Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026						
Har bir semestrdagi fan/modulning nomi	Semestr	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)				Jami yuklama (soat)	
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy laboratoriya		Mustaqil ta'lim (soat)
Ijtimoiy siyosat	3	4	4	60	30	0	0	60	120
Ijtimoiy siyosat	4	4	4	60	30	0	0	60	120
Jami:		8	8	120	60	0	0	120	240

1.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish, aholining turmush darajasini izchil oshirish va sifatini yaxshilash, ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini mohiyatini o'rgatishdan iborat. Fanning vazifasi – ijtimoiy siyosat fani obyekt, predmeti, asosiy tushuncha va kategoriyalarini mohiyatini tushuntirish, ijtimoiy siyosatning nazariy asoslarini tanishtirish, aholi daromadlarini oshirishda oylik ish haqining o'rni ko'rsatib berish, ijtimoiy xizmatlarni tushuntirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishini tushuntirish, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi o'rganish, ijtimoiy sheriklik tizimi: hokimiyat tuzilmalari bilan aloqalarini o'rnatishni o'rganish, O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari tushuntirish, ijtimoiy sug'urta: huquq, moliya va iqtisodiyot haqida o'rganish, demografik siyosatni tushuntirish, pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilishni tushuntirish, aholi bandligi, ishsizlik: ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llarini tushuntirish, kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llari tushuntirish, davlatning oilaga qaratilgan siyosatini tushuntirish, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlikning mohiyati va mazmunini ochib berish orqali talabalarga jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy jarayon, hodisalarni ilmiy tahlil etish zaruriyatini singdirishdir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Ijtimoiy siyosatning obyekti va predmeti. Ijtimoiy siyosatning obyekti va predmeti, rivojlanish bosqichlari. Ijtimoiy siyosatni olib borish metodlari. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov. 2-mavzu. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari. Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri. O'rta asrlar va uyg'onish davridagi ijtimoiy siyosiy g'oyalar. Yangi va eng yangi zamondagi ijtimoiy siyosiy ta'limotlar. 3-mavzu. Aholi daromadlarini oshirishda oylik ish haqining o'rni. Mehnat va oylik haqining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va uning turlari. Mehnat oylik ish haqi borasidagi nazariy yondashuvlar. Aholi daromadlari va uning xususiyatlari. O'zbekistonda aholi daromadini oshirishga qaratilgan siyosat. 4-mavzu. Ijtimoiy xizmatlar. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari. 5-mavzu. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy
----	--

yo'nalishi sifatida. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasining mohiyati. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo'nalishlari. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlatning o'rni. 6-mavzu. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi. Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarning metodologik masalalari. Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatining xususiyatlari. AQSH liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo'nalishlari. Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari. 7-mavzu. Ijtimoiy sheriklik tizimi: hokimiyat tuzilmalari bilan aloqalarini o'rnatish. "Ijtimoiy sheriklik" tushunchasi va uning tamoyillari. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g'oyalar evolyusiyasi. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari. 8-mavzu. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari. Strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari. O'zbekiston milliy taraqqiyoti yangi bosqichi. 9-mavzu. Ijtimoiy sug'urta: huquq, moliya va iqtisodiyot. Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari. Ijtimoiy sug'urtaning modellari va turlari. Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari. 10-mavzu. Demografik siyosat. Demografiya fanining paydo bo'lishi va vujudga kelishi. Demografik siyosatning hususiyatlari. Aholi migratsiyasi. 11-mavzu. Pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilish. Pensiya ta'minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tug'an o'rni. Jahon mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimlarini turlari va ularning o'zgarish tendetsiyalari. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendetsiyalari. 12-mavzu. Aholi bandligi. Ishsizlik: ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llari. Bandlik, uning mohiyati va shakllari. Ishsizlik va uning asosiy turlari. Mehnat bozorining modellari. 13-mavzu. Kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llari. Kambag'allik tushunchasi uning ko'rinishlari va turlari. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag'allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning yo'llari va uning asosiy yo'nalishlari. 14-mavzu. Davlatning oilaga qaratilgan siyosati. Oila tushunchasi uning turlari va shakllari. Xorij davlatlarda oilaviy qon-qarindoshlik munosabatlari tarixi. Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati. 15-mavzu. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlik. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondashuvlar. Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari. Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni. III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Ijtimoiy siyosatning obyekti va predmeti. 2. Ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari. 3. Aholi daromadlarini oshirishda oylik ish haqining o'rni. 4. Ijtimoiy xizmatlar. 5. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida. 6. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi.	3
--	---

7. Ijtimoiy sheriklik tizimi: hokimiyat tuzilmalari bilan aloqalarini o'rnatish.
8. O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustuvor yo'nalishlari.
9. Ijtimoiy sug'urta: huquq, moliya va iqtisodiyot.
10. Demografik siyosat
11. Pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilish.
12. Aholi bandligi. Ishsizlik: ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llari.
13. Kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llari.
14. Davlatning oilaga qaratilgan siyosati.
15. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlik.
Seminar mashg'ulotlar multimedialar qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.
- IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**
- Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:
 1. Xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosati
 2. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat olib borish muammo va istiqbollari (Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar misolida)
 3. Maxalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'lgan aylanitirish
 4. Xalq deputatlari Kengashlari hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'lgan aylanitirish.
 5. "Davlat - inson uchun" tamoyili - demokratik islohotlar mezonlari.
 6. Davlat organlari - xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi.
 7. Hududiy masalalarni hal qilish mas'uliyati.
 8. Erkin va ochiq fuqarolik jamiyati.
 9. Mamlakatimizda islohotlarni izchil davom ettirishda Oliy Majlis palatalarining o'rnini.
 10. Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili.
 11. "Elektron hukumat" tizimi rivojlantirish doirasidagi islohotlar.
 12. "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasi deganda nimalarni tushunasiz?
 13. "Xalqparvar davlat" dasturi qanday islohotlarni qamrab olgan.
 14. "Raqqamli davlat xizmati"ni amalga oshirish loyihasi.
 15. Mustaqil va o'zini o'zi tizimi
 16. Xalq deputatlari Kengashlari hududlarda mavjud muammolarni hal qilishdagi asosiy bo'lgan aylanitirish.
 17. "Davlat - inson uchun" tamoyili
 18. Sud tizimini yanada takomillashirish va mustahkamlash, adolatli sudlovdan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan vazifalari:
 19. "Qonun - ustuvor, jazo - muqarrar"
 20. Sud tizimi sohasida qaysi yo'nalishlarga muhim e'tibor qaratiladi.
 21. "Mustaqil advokatura konsepsiyasi"
 22. Konstitutsiyaviy islohotlar - Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi obyektiv zarurat.
 23. "Yangi shaxs", "Yangi fuqarolik jamiyati", "Yangi demokratik boshqaruv tizimi" tushunchalariga izoh bering.
 24. Yangi O'zbekistonni barpo etishda konstitutsiyaviy islohotlarning o'rnini.
 25. Kelgusi besh yilda aholi jon hoshiga yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish vazifasi nimalardan iborat? 2030 yilga mo'ljallangan maqsadlar.
 26. "Soliq - 2030" strategiyasi haqida tushuntirish.
 27. "Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi.

28. Iqtisodiy siyosatimizning asosiy "Har bir fuqaro boy bo'lsa - davlat boy boladi, har bir oila farovon bolsa - mamlakat farovon boladi" tamoyilini izohlang.
 29. Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish sohasidagi tizimli muammolar tashvishini sanab o'ting va ularni bartaraf etish yo'llari mavjudmi.
 30. Xususiy mulk daxsizligi borasida olib borilgan va olib borilayotgan chora tadbirlar.
 31. Tadbirkorlikni rivojlantirish borasida 2017-2022 yillarda Harakatlar strategiyasida amalga oshirilgan islohotlar.
 32. "Tadbirkorlik kodeksi" ni ishlab chiqishdan ko'zlangan maqsad.
 33. "Har bir oila - tadbirkor" g'oyasining maqsad va vazifalari.
 34. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali iqtisodiy islohotlarning mustahkam paydovorini yaratish kerak, deganda siz nimalarni tushunasiz.
 35. Kambag'allikni qisqartirish borasidagi chora tadbirlar.
 36. Kelajakda qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar samarasini oshirish va mazkur jabhani rivojlantirishning ustuvor vazifalari nimalardan iborat.
 37. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.
 38. BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan dastur.
 39. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari.
 40. Islohotlarning yangi bosqichida turizm bo'yicha strategik vazifalarni nimalardan iborat.
 41. Raqqamli iqtisodiyot sari.
 42. Mamlakatimizda raqqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha quyidagi ustuvor vazifalar nimalardan iborat.
 43. "Aqlii uy" tajribasini tatbiq etishdan ko'zlangan maqsad.
 44. Moddiy rag'batlantirish tizimini (KPI) joriy etish sabablari.
 45. QR to'lovlari texnologiyasi nima uchun kerak, undan ko'zlangan maqsad.
 46. Davrimizning global muammolari va O'zbekiston taraqqiyoti
 47. Iqlim o'zgarishlari, ekologik bo'ronlar,
 48. Orol va ona tabiatni asrash zarurati
 49. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm - barqaror taraqqiyot kushandasi
 50. Korupsiyadan xoli dunyo - umumbashariy orzu.
 51. Kambag'allik: umuminsoniy va milliy muammolar.
 52. Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi hamda samarali migratsiya siyosati.
 53. Pandemiya tahdidi va unga qarshi kurash tajribamiz.
- Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**
1. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish.
 2. Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish.
 3. Berilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi rahbarligida ilmiy-ijodiy ishlanmalar (tezis yoki maqolalar) tayyorlash va chop etish.
 4. Berilgan manbalar asosida tarjima ishlarini amalga oshirish.
 5. Berilgan mavzular bo'yicha kurs ishini bajarish tavsiya etiladi.

2. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • davlatning ijtimoiy siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish, boshqarish va islohot etish yo'nalishlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; • ijtimoiy siyosat fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriyalari va qonunlari, shaxs va uning ijtimoiylashuv jarayoni, sotsial guruhlar tasnifi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqesi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqlikda ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olish haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; • turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni holis qiyosiy taqqoslash, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni obyektiv tahlil qilish, muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarda ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida o'tkazilgan amaliy natijalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.	3. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari : • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.	4. VIII. Talabalar kreditlarni olish tartibi Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan Ijtimoiy siyosat fanidan ikki (3-4) semestr uchun mo'ljallangan 240 soat (semestri va soat miqdori aniq ko'rsatilsin) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholalanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan talabaga har bir semestr uchun 4 kreditdan beriladi, jami bo'lib 8 (semestri va krediti aniq ko'rsatilsin) kredit bo'ladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi. Talabalarning bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi. "Ijtimoiy siyosat" faniga kunduzgi bakalavr ta'lim yo'nalishlarida 60 soat ma'ruza, 60 soat seminar va 120 soat mustaqil ta'limga ajratilgan. Universitet nizomi bo'yicha bu 240 soat yuklama hajmiga 8 kredit beriladi. Oraliq nazoratda baho tizimi asosida talabalar baholanadilar. Talabalar yakuniy nazorati balli konvertatsiya asosida hamda mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun ballik shkala tizim asosida yakuniy nazorat bahosiga qo'shib baholanadilar. Oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida og'zaki shaklda o'tkaziladi. Har bir oraliq nazorat uchun 3 tadan savolga ega biletlar beriladi. (Oraliq nazoratning olinish tartibi, shakli, baholash mezonlari, vaqt taqsimoti va namunaviy savollar berilishi lozim).
--	---	---

ON mezon: 3-4-semestrdagi 1-oraliq nazorati 4 va -ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi, 2-oraliq nazorati 12-ma'ruza mashg'uloti tugagandan so'ng o'tkaziladi. 1-oraliq nazoratda talabaga og'zaki savollar asosida (2 dan 5 gacha baho ko'rinishda) baholanadilar va 2-oraliq nazorati ham og'zaki savollar asosida (2 dan 5 gacha baho ko'rinishda) baholanadilar. Shundan: agarda talaba 3 ta savolga javob bersa 5 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, agar 2 ta savolga javob bersa 4 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi, 1 ta savolga javob bergan talabaga 3 baho (bal konvertatsiyasida) ga ega bo'ladi. Agarda talaba 1 ta ham savolga javob berolmasa u qayta topshirishga qoldiriladi. Qayta oraliq nazorat 2 marta gacha olinishi mumkin. Umumiy oraliq nazorat uchun balli konvertatsiyasida (har bir oraliq nazorat uchun 5 ballgacha) 10 ballgacha baholanadilar.	Yakuniy nazorat: 3-4-semestrdagi yakuniy nazoratlar semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish shaklida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat uchun berilgan umumiy 100 ball hisoblanadi.	YaN mezon: Yakuniy nazorat Yozma ish shaklida o'tkaziladi, talabaga 3 ta savoldan iborat bilet beriladi va har bir to'g'ri javobi uchun (bal konvertatsiyasida) baholanadi. 3 ta savolga to'liq javob yozgan talaba 5 (bal konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi, 2 ta savolga javob yozgan talaba 4 (bal konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi, 1 ta savolga javob yozgan talaba 3 (bal konvertatsiyasida) bahoga ega bo'ladi. Agarda talaba berilgan savolnomadagi savollarga javob yozolmasa u fanga tegishli kreditga ega bo'la olmaydi. Yakuniy nazorat qayta olinmaydi. (Yakuniy nazoratning olinish tartibi, shakli, baholash mezonlari, vaqt taqsimoti va namunaviy savollar berilishi lozim).	Mustaqil ish topshiriqlari: mustaqil ish topshiriqlaridagi vazifalarni talabalar 3-4-semestrdagi talabalar mustaqil ishlarni taqdimot (slayd) shaklida himoya qiladi hamda referat kreativ fikrlashga va qo'yilgan topshiriqlarga mustaqil yondoshuviga qaratib baholanadi. Baholanish mezonlari oraliq nazorat bahosi ichiga kiritilgan holda baholanadi.	2. Talabalar bilimni (ON, YN hamda mustaqil ish uchun) baholashda quyidagi mezonlarni hisobga olinadi:	Talaba "Ijtimoiy siyosat" fanidan mustaqil ravishda xulosa va qaror qabul qiladigan, mavjud nazariyalar va amaliy jihatdan dasturlarni ishlay oladigan, sotsiologik tahlil masalalarda ijodiy fikrlay oladigan, ijtimoiy jarayonlari haqida mustaqil mushohada yuritadigan, "Ijtimoiy siyosat" fanidan olgan nazariy bilimni amalda qo'llay oladigan, "Ijtimoiy siyosat" fanning mazmun-mohiyatini tushunadigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahliliy to'liq tushuntira biladigan, ijtimoiy siyosatning funksiyalarini va ilmiy kategoriyalarini ifodalay oladigan hamda berilgan mavzu doirasida savollarga to'liq javob beradigan va fan bo'yicha berilgan nazorat savollariga to'liq tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;	Talaba "Ijtimoiy siyosat" fanidan mustaqil ravishda sotsiologik tahlil masalalarda ijodiy fikrlay oladigan, ijtimoiy jarayonlari haqida mustaqil mushohada yuritadigan, ijtimoiy siyosat fanidan olgan nazariy bilimni amalda qo'llay oladigan, ijtimoiy siyosat fanning mazmun-mohiyatini tushunadigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahliliy to'liq tushuntira biladigan, ijtimoiy siyosatning funksiyalarini va ilmiy kategoriyalarini ifodalay oladigan hamda berilgan mavzu doirasida savollarga keraklikcha javob beradigan va fan bo'yicha berilgan nazorat savollariga javob berishga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;	Talaba "Ijtimoiy siyosat" haqida olgan bilimni amalda qo'llay oladigan, ijtimoiy siyosat fanning mohiyatini tushunadigan, fan kategoriyalari haqida qandaydir bilimga ega bo'lishi hamda tushuntira biladigan, ijtimoiy siyosat funksiyalarini ifodalay oladigan va aytib beradigan hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi.
--	---	--	--	--	---	---	---	---